



O'ZBEKISTON VOKAL SAN'ATIDA TANIQLI USTALAR IJROCHILIK VA PEDAGOGIK MEROSI

Jo'rayeva Dilafruz.

*Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti
musiqa ta'limi yo'nalishi 201 guruh
talabasi*

Raimova Dilfuza.

*Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti
o'qituvchisi professor*

Annotatsiya

Ushbu maqolada kuylash ko'nikmalari, vokal ijrochiligiga oid tushunchalar, ovoz va uning turlari haqida ma'lumotlar berilgan. Xonandalik san'ati rivoji uchun hissa qo'shgan ustozlarning faoliyati yoritilgan.

Kalit so'zlar:

Vokal, qo'shiq, ashula, xiqqildoq, tomoq, traxeya, tovush naychalari, Bronx.

Аннотация: В статье представлена информация о певческих навыках, понятиях, связанных с вокальным мастерством, голосом и его типами. Также освещается деятельность педагогов, внесших вклад в развитие певческого искусства.

Ключевое слово: Вокал, пение, пение, икота, горло, трахея, голосовые связки, Бронхи.

Annotation: This article provides information about singing skills, concepts related to vocal performance, voice and its types. It highlights the work of teachers who contributed to the development of the art of singing.

Keyword: Vocal, penie, penie, hiccups, throat, trachea, vocal cords, Bronchi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi brinchi prizidenti, bobomiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "O'zbekiston XXI- asr ostonasida" nomli asarida "Xalqni uning nomi emas balki uning ma'daniyati tanitadi" degan fikrni yozib qoldirgan. Bizn jahon madaniyati, ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan insonlar Alisher Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk siymolarning avlodlarimiz.

Hozirgi kunda davlatimizda san'at va ma'daniyat sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Vokalni an'anaviy, klassik va Estrada kabi turlarga ajratish mamlakatimizga yuqori darajada rivojlangan mamlakatlardan kirib kelgan. Vokalning fiziologik tabiati, barcha etnos va madaniyatlar uchun umumiy bo'lgan inson fiziologiyasidan kelib chiqib ovozni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqadi, bu o'zbek qo'shiqlarini yurtimizdan tashqarida ham mashxur bo'lishiga imkon beradi. Ko'p yurtdoshlarimiz xalqaro konkurslar va festivallarda faol ishtrok etmoqdalar va farhli o'rinlarni egallamoqdalar. Ovoz, ijro qilish ilmini yaratish borasida katta hissa qo'shgan olimlar Yussan (Fransiya), L.B.Dmitriyev(Rossiya), D.E.Ogorodnikov(Rossiya). Yussan va L.Dmitriyev masalani akustika va fiziologik tomonlarini o'rganishgan.

“Vokal ” so'zining lug'aviy ma'nosi “qo'shiq, ashula” degan musuqiy atamalarga to'g'ri keladi va vokal - ijtimoiy, madaniy - ma'rifiy jarayonlarning ajralmas qismi bo'lib qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan Xonandalik yo'nalishida vokal asosiy o'rinni egallaydi. Vokal - musiqa san'atining o'ziga xos turi bo'lib, brinchi o'rinda ashula aytish mahoratini yuqori darajada o'zlashtirishi kerak bo'ladi. Ijro jarayoni yakka holda, ansambl yoki xor jo'rligida bo'lishi ham mumkin. Hozirda biz so'z yuritayotgan Vokal san'ati hozirgi kunda opera, operetta, musiqaii dramalar, komediyalar va Estrada konsertlarida ham keng qo'llanib kelinmoqda(Erkin Rahimov Vokal Toshkent 2017). Ijro uslubida ishlatiladigan ya'ni ovoz apparati haqida so'z yuritsak. Ovozni tashkil qiluvchi barcha a'zolar birgalikda ovoz apparatini tashkil qiladi va ularga quyidagilar kiradi:

Og'iz va burun bo'shlig'i (qo'shimcha bo'shliqlari bilan);

Hiqildoq (halqum, bo'g'iz);

Tovush naychalari;

Tomoq;

Traxeya;

Bronx;

O'pka;

Ko'krak qafasi;

Nafas olish muskuli;

Diafragma;

Qorin bo'shlig'i muskullari.

Xonanda ovozi diafazoni bir nechta registrga ajratiladi. Turli registrdagi tovushlar har xil tembr va jarangdorlikka ega. Masalan; erkaklar ovozinin paski diafazoni (ko'krak registri) shirali va kuchli yangraydi, baland tovushlar registri esa jarangli va quruqroq eshitiladi. Ayollar ovozi esa pastki tovushlar (ko'krak tovushlari), markaziy (o'rta balandlikdan) va baland tovushlar registrlariga ajratiladi. Professional xonanda ovozi diafazoni 2 oktavaga ega bo'lishi registrlar o'rtasidagi tovushlar esa tekis yangrashi kerak. Xonanda ovozi yo'g'on - ingichkaligiga qarab yevropa xonandaligida 6 turga bo'linadi. Ayollar xonanda ovozi-soprano, messo soprano va kontralto, erkaklar xonanda ovozi- tenor, baritone va bas. Erkaklar ovozlardan nisbatan baland va ochiqroq yangraydiganlari lirik, yo'g'on va quyuqroq eshitiladigan ovozlar dramatik turlarga ajratiladi.

Erkaklarning eng baland ovozi tenor bo'lib, uning diapazoni kichik oktava do notasidan ikkinchi oktava do notasigacha qamrab oladi.

Tenor – altino – ikkinchi oktava mi notasiga etib borib, engil va aniq jaranglaydi;

Lirik tenor – iliq, yoqimli tovush;

Liriko-dramatik tenor – ham lirik, ham dramatik parchalarni ijro etadi, biroq tovush kuchi jihatidan dramatik tenordan keyinda turadi;

Dramatik tenor – tovush kuchli bo‘lib, eng tragik holatni ifoda etishga loyiq. Xarakterli tenor — o‘ziga xos tembrga ega tovush;

Bariton - katta oktavaning Iya notasidan birinchi oktava Iya notasigacha bo‘lgan diapazonni qamrab oladi;

Lirik bariton – engil jaranglaydi, tenor jarangdorligiga yaqin, ammo baritonli tembrga ega;

Liriko-dramatik bariton – yorqin tembr va sezilarli kuchga ega;

Dramatik bariton – tovushda bir muncha qayg‘uli jarangdorlik, diapazoning markaziy va ustki qismida katta kuchga ega;

Bas – erkaklarning eng past ovozi, katta oktava fa notasidan birinchi oktava fa notasigacha bo‘lgan diapazonni qamrab oladi;

Yuqori bas yoki bas kantante -tovushning baritonli tembrini eslatuvchi yorqin diapazonga ega;

Markaziy bas - bir muncha keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, diapazoni va tembri bas xarakterini yorqin ifodalaydi;

Past bas - asosan quyuq bas koloritiga, diapazonning bir muncha qisqa yuqori qismiga ega bo‘lib, chukur, baquvvat past tovushlarni ifodalaydi;

Bas-oktavistlar- kontroktavali qator tovushlarni qamrab olishi mumkin. Tovushlari kontroktava fa notasiga tushib ketgan hollari ham kuzatilgan.

Ayollar ovozi uch turdan iborat:

Soprano;

Messo-soprano;

Kontralto;

Baland tembrli ayollar tovushi – soprano, birinchi oktava do notasidan uchinchi oktava do notasigacha diapazonni qamrab oladi;

Koloraturali soprano - engil, tiniq jarangdorlikka hamda harakatchanlik qobiliyatiga ega bo‘lib, yuqorida uchinchi oktava fa notasigacha, ba‘zan Iya notasigacha etib borish imkoniyati mavjud;

Liriko-koloraturali soprano – bir muncha kuyuk, jarangdorligi keng, harakatchan tovush bo‘lib, ham lirik, ham koloraturali parchalarni ijro eta oladi;

Lirik soprano – harakatchanligi bir muncha baquvvat va keng tovushga ega bo‘lib, tembr bo‘yicha yorqin, kumushrang, ilqlikka ega. Yuqori pardalarda ikkinchi oktavaning do notasigacha etib boradi;

Liriko-dramatik soprano – keng lirik tovushga, bir muncha to‘yingan ko‘krak tembriga ega;

Dramatik soprano -messoni eslatuvchi, past notalarda katta kuchdagi jarangdorligi bilan farqlanadi.

Messo-sopranoning diapazoni kichik oktava Iya notasidan to ikkinchi oktava si notasigacha, ba‘zida to uchinchi oktava do notasigacha boradigan to‘q tembrli ayollar ko‘krak ovozi.

Albatta xalqimizda musiqa san'atni rivojlantirish uchun katta hissa qo'shgan bastakor va hofiz ustozlarimiz bor. Bulardan Muhiddin Qoriyoqubov 1.05.1896 hozirgi Farg'ona sharhida tug'ilgan bo'lib u - ashulachi, opera honandasi bariton ovoz soxibi, aktyor, O'zbek musiqali teatri asoschilaridan biri. Turkiston Respublikasining brinchi xalq hofizi, O'zbekistonda hizmat ko'satgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti. Muhiddin Qoriyoqubov ilk marotaba eski maktabda, madrasada tahsil olgan, qiroatni yaxshi o'rgangan, qorisifatida ham tanilgan. Qoriyoqubov yoshligidan xalq ashulachilik san'atini yaxshi o'zlashtirgan. Turli konsert dasturlarida faol qatnashib xalq va mumtoz ashulalar "Yo'l bo'lsin", "G'ayra-g'ayra", "Olmacha anor", "Ko'cha bog'i" kabi asarlarni ijro qilgan. 1919-yilda Toshkentdagi K.Shorshteyn teatr studiyasida, Moskvada teatr san'at institutida 1922-24 yillarda tahsil ko'rgan. Tamaraxonim bilan "Sharq kechalari", 1925-yildan Parijda o'tkazilgan Jahon amaliy san'at ko'rgazmasida va Berlin konsert sahnalarida o'zbek qo'shiq, yalla va laparlarni yangicha usulda talqin etib, zamonaviy o'zbek san'atini ilk bora Yevropada targ'ib etgan. Muhiddin Qoriyoqubov 22.02.1957-yil Toshkent shaxrida vafot etgan.

O'zbek san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan yana bir ustozimiz xonanda, bastakor, O'zbek xalq hofizi Jo'raxon Sultonov 29.01.1903 -yilda Marg'ilon shahrida tug'ilgan. Jo'raxon Sultonov keng dizapazonli, kuchli, yumshoq xirildoq va dardli ovoz sohibi bo'lgan. U xonandalik darslarini ilk nor otasidan o'rgangan, keyinchalik Madali hofizdan yalla yo'llarini, Boltaboy Rajabov, Mamatbuva Sattorovlardan katta ashula, Sodirxon hofiz, Mulla To'ychi hofizlardan maqom yo'llarini o'rgangan. Dastavval xalq to'y sayllari, choyxonalarda xizmat qilgan. So'ngra 1926- yildan M. Qoriyoqubov rahbarligidagi O'zbek davlat konsertetnofatik truppasigada faol qatnashgan. Marg'ilon va Toshkent teatrlarida, O'zbek davlat filarmoniyasi, O'zbekiston radioqo'mitasida yakkaxon xonandda bo'lib faoliyat yuritgan. Muqumiy teatrida Parvi hofiz ("Tohir va Zuhra"), Norqo'zi ("Nurxon") kabi ro'llarni ijro etgan. Xonanda, bastakor, xalq xofizi Jo'raxon Sultonov 19.10.1965- yili Marg'ilon shahrida vafot etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Q. Toshtemirov. Vokal va zamonaviy musiqa o'quv qo'llanma. Andijon-2020.
2. E. Rahimov. Vokal. Toshkent-2017.
3. D. Malikov. Vokal. Toshkent- 2019.